

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB

“yashil” kreditlari

“Yashil” kredit nima?

“Yashil” kredit - bu yangi yoki mavjud “yashil” loyihalarni to‘liq yoki qisman moliyalashtirish yoki qayta moliyalashtirish uchun taqdim etiladigan har qanday kredit vositasidir.



“Yashil” loyihalar toifalari:

1. Qayta tiklanadigan energiya bilan bog‘liq loyihalar:

- kichik gidroelektrostansiyalar;
- shamol turbinalari;
- quyosh batareya (panel)lari;
- geotermik energiyadan foydalaniladigan loyihalar;
- bioenergetika loyihalari.

2. Energiyasamaradorlik bilan bog‘liq loyihalar:

- birlamchi va/yoki oxirgi elektr energiya sarfini va/yoki yoqilg‘ining oxirgi iste‘molini kamaytiradigan uskunalar, tizimlar va jarayonlarga investitsiyalar;
- energiya sarfini yoki issiqxona gazlari chiqindilarini dastlabki darajadan 20% yoki undan ko‘proq kamaytirilishini ta‘minlaydigan investitsiyalar;
- shahar transporti loyihalarida energiyasamaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar;
- energiyasamaradorligi va/yoki issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish uchun komponentlar, uskunalar va infratuzilmani ishlab chiqarish;
- mavjud uskunalarni o‘xshash energiya tejaydigan uskunalar bilan almashtirish;
- mavjud uskunani katta quvvatga uskunalar bilan almashtirish (bir birlik mahsulotga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi yoki issiqxona gazlari chiqindisi dastlabki darajadan 20% yoki undan ko‘proq kamaytirilishi sharti asosida);
- va boshqalar.

3. Atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va chiqindilarni qayta ishlashga oid loyihalar:

- chiqindilarni yig‘ish, qayta ishlash va boshqarish;
- atmosferaga chiqadigan emissiyalarni kamaytirish;
- issiqxona gazlarini boshqarish;
- tuproqni tiklash;
- ifloslanishning oldini olish va kamaytirish;
- va boshqalar.

4. Ekologik toza transport bilan bog‘liq loyihalar:

- elektromobil transport vositalarini ishlab chiqarish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish;
- elektr / jamoat / temir yo‘l / dvigatelsiz transport;
- ekologik toza transport vositalari uchun infratuzilma yaratish;
- va boshqalar.

5. Iqlim o‘zgarishiga moslashish bilan bog‘liq loyihalar:

- suvdan foydalanish samaradorligini oshirishga (suv iste‘molini kamaytiradigan va/yoki suvdan foydalanishni yaxshilaydigan materiallar, uskunalar, moslamalar va texnologiyalarga) investitsiyalar;
- tabiiy va yer resurslaridan samarali foydalanish boshqaruviga (tuproq eroziyasini kamaytiradigan materiallar, uskunalar, moslamalar va texnologiyalarga) investitsiyalar;
- yer-usti va yer-osti hamda biologik xilma-xillikni saqlash;
- va boshqalar.

6. Boshqa “yashil” loyihalar:

- “yashil” binolarni qurish va mavjud binolarni modernizatsiya qilish;
- mavjud binolarni takomillashtirish (binoning energiya samaradorligi yashash maydoni birligiga kamida 20%ga yaxshilanishi sharti asosida);
- ekologik samarador mahsulotlar, ishlab chiqarish texnologiyalari va jarayonlariga investitsiyalar;
- LED yoritgichlarini ishlab chiqarish va yig‘ish;
- Sensorli avtomatik o‘chirgichlarni yig‘ish
- energiyasamarador yoritish yoki uskunalarini o‘rnatish;
- va boshqalar.

“Yashil” yo‘nalishlarda ishlatiladigan texnologiyalarga misollar:

Qishloq xo‘jaligi:

- Quyosh fotoelektr tizimlari;
- Quyosh suv isitgichlari;
- Yomg‘ir suvini yig‘ish tizimlari;
- Tomchilab sug‘orish tizimi bilan ishlaydigan energiya tejaydigan issiqxonalar;
- Fermer xo‘jaliklari uchun uskunalar (kombaynlar, traktorlar, tirkamalar);
- Tomchilab sug‘orish tizimi;
- Quritish mashinalari;
- Deraza va eshiklarni yuqori texnologiyali izolyatsiya qilish;
- Energiyani tejaydigan sovutish tanklari va muzlatgichlar;
- Isitish, ventilyatsiya va havo sovutish tizimi;
- Suv nasoslari;
- Sug‘orish tizimlari;
- Boshqariluvchi ventilyatorlar.

Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash:

- Ishlab chiqarish uskunalarini almashtirish;
- Pechkalar;
- Sovutish moslamalari;
- Muz saqlash uchun shkaflar;
- Qadoqlash moslamalari;
- Havo kompressorlari;
- Konveyerlar;
- Issiqlikni tiklash tizimlari;
- Distillash, quritish va bug‘lanish uskunalari;
- Siqilgan havo tizimi ta‘minotlari;
- Quyosh fotoelektr tizimlari;
- Quyosh suv isitgichlari;
- Yomg‘ir suvini yig‘ish tizimlari;
- LED yoritgichlari;
- Deraza va eshiklarni yuqori texnologiyali izolyatsiya qilish;
- Isitish, ventilyatsiya va havo sovutish tizimi;

Savdo / ofis maydoni:

- Binoni qayta qurish;
- Bino qurish;
- Derazalarni o'rnatish va almashtirish,
- Bino-inshootlarning issiqlik izolyatsiyasi,
- Tizimni o'rnatish va almashtirish, bino va inshootlarning issiqlik izolsiyasi;
- Quyosh fotoelektr tizimlari;
- Quyosh suv isitgichlari;
- Yomg'ir suvini yig'ish tizimlari;
- LED yoritgichlari;
- Yuqori texnologiyali devor, tom va deraza izolyatsiyalari;
- Isitish, ventilyatsiya va sovutish tizimlari;
- Energiya-tejamkor muzlatgichlar va sovutgichlar;
- Suv tejaydigan santexnika anjomlari.

Mehmonxona:

- Binoni avtomatlashtirish tizimi;
- Issiq suv uchun quyosh kollektorlari;
- Yomg'ir suvini yig'ish tizimlari;
- Liftlar;
- “Aqlli” suv ta'minoti kranlari;
- Sovutish tizimlari;
- Energiya va issiqlik ta'minotining kombinatsiyalangan tizimlari;
- LED yoritgichlari;
- Kartali kalitlar tizimi;
- LED ko'rsatkichlari va detektorlar;
- Suv tejaydigan santexnika anjomlari;
- Yuqori texnologiyali devor, tom va deraza izolyatsiyalari;
- Isitish, ventilyatsiya va sovutish tizimlari;
- Energiya-tejamkor pechlar, sovutgichlar va muzlatgichlar;
- Basseyn uchun nasoslar.

Logistika / transport:

- Yuk avtomashinalari;
- Konveyerlar;
- Yuk ko'taruvchilar;
- Traktorlar;
- Avtobuslar;
- Old yuklagichlar.

Tipografiya:

- Plotterlar;
- Printerlar;
- Sovutish tizimlari;
- Boshqariladigan ventilyatorlar;
- Kompresorlar;
- Katlama mashinasi.

To‘qimachilik/ kiyim-kechak sanoati:

- Ishlab chiqarish uskunalarini almashtirish;
- Kir yuvish mashinalari;
- Kesish mashinalari;
- To‘qish mashinalari;
- Tufting mashinalari;
- Quritish mashinalari;
- Quyosh fotoelektr tizimlari;
- Quyosh suv isitgichlari;
- Yomg‘ir suvini yig‘ish tizimlari;
- LED yoritgichlari;
- LED ko‘rsatkichlari va detektorlar;
- Yuqori texnologiyali devor, tom va deraza izolyatsiyalari;
- Isitish, ventilyatsiya va sovutish tizimlari;
- Siqilgan havo ta‘minoti tizimlari, samarali elektr motorli konveyerlar.

Mijozlar uchun “yashil” kreditlarning afzalliklari

Atrof-muhitni muhofaza qilish:

- zararli gaz chiqindilarini kamaytirish;
- tabiiy resurslarni tejash;
- biosferani saqlash;
- jarayonlarni avtomatlashtirish;
- ishlab chiqarish hajmining o‘ssishi;
- mahsulot sifatini yaxshilash;
- eksport salohiyatining o‘ssishi.

Modernizatsiya:

Xarajatlar kamayishi:

- elektr/suv va boshqa resurslarni tejash;
- chiqindilarni kamaytirish.

Daromad ko‘payishi:

- past ishlab chiqarish tannarxi;
- mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish.

Green Banking yo‘nalishida mavjud kredit liniyalari:

- Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki;
- Xalqaro moliya korporatsiyasi;
- Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki;
- Fransiya taraqqiyot agentligi;
- Yevropa investitsion banki;
- Energetika vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Tarmoqlararo energiyani tejash jamg‘armasi.

“Yashil” kredit mahsulotlari:



Korporativ mijozlar uchun – “Corporate Green Loan”



Kichik va o‘rta biznes mijozlari uchun

- “SME Green Loan”, “Invest Green GEFF” va “Green Elektrmobil”.



Jismoniy shaxslar uchun – “Yashil ipoteka” va “Green Consumer Loan”

 Korporativ mijozlar uchun “yashil” kredit mahsulotlari: “Corporate Green Loan”

“Corporate Green Loan”

Kredit maqsadi

Energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish, eko-transport ishlab chiqarish va sotib olish, mavjud binolarni energiya tejamkorga o‘zgartish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, suvdan oqilona foydalanish hamda energoaudit o‘tkazish xarajatlarini moliyalashtirish hamda boshqa “yashil” loyihalarni moliyalashtirish.

Mijoz (Segment)

Korporativ biznes sub’ektlari (neft va gaz, kimyo, energetika, transport va metallurgiya hamda boshqa tarmoq mijozlari).

Kredit valyutasi

So‘m, AQSh dollari, yevro;

Kredit summasi

Loyiha qiymatining **70%idan** oshmagan miqdorgacha.

Kredit muddati

Aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun - **12 oygacha**;

Investitsion loyihalarning o‘zini qoplashi hamda Bankda mavjud resurslar muddatidan kelib chiqib, Bankning o‘z mablag‘lari hisobidan milliy va xorijiy valyutada - **60 oygacha**;

Jalb qilingan mablag‘larda – jalb qilingan liniya shartlariga muvofiq.

Imtiyozli davr

Bankning o‘z mablag‘lari hisobidan ajratiladigan kreditlar uchun - mijoz arizasiga asosan, ammo qisqa muddatli kreditlar uchun **6 oydan** va uzoq muddatli kreditlar uchun **1 yildan** ko‘p bo‘lmagan muddatgacha;

Jalb qilingan mablag‘lar hisobidan ajratiladigan kreditlar uchun – jalb qilingan liniya shartlariga muvofiq.

 Korporativ mijozlar uchun “yashil” kredit mahsulotlari: “Corporate Green Loan”

Kredit foizi

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ajratiladigan kreditlar, faktoring va lizing amaliyotlari bo‘yicha foiz stavkalari”ni belgilash bo‘yicha amaldagi Boshqaruv qarorida o‘rnatilgan miqdorda.

Qo‘shimcha shartlar

Loyiha natijasida:

- kamida 20%lik energiya tejamkorligiga erishilishi;
- va/yoki atrof muhitga tarqalayotgan uglikisli gaz miqdori 20% ga kamayishi;
- va/yoki tabiiy resurslardan foydalanishda tejamkorlikga erishilishi;
- va/yoki atrof muhitga yetkaziladigan zararning kamaytirilishi;
- va/yoki boshqa “yashil” maqsadlarga erishilishi.
- ekologik talab va mezonlarga javob berishi (V va S toifa).

 Kichik va o‘rta biznes mijozlari uchun: “SME Green Loan”

“SME Green Loan”

Kredit maqsadi	Energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish, eko-transport ishlab chiqarish va sotib olish, mavjud binolarni energiya tejamkorga o‘zgartish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, suvdan oqilona foydalanish hamda energoaudit o‘tkazish xarajatlarini moliyalashtirish hamda boshqa “yashil” loyihalarni moliyalashtirish.
Mijoz (Segment)	Mikro, kichik va o‘rta biznes
Kredit valyutasi	So‘m, AQSh dollari, yevro;
Kredit summasi	Loyiha qiymatining 70%idan oshmagan miqdorgacha.
Kredit muddati	Aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun - 12 oygacha; Investitsion loyihalarning o‘zini qoplashi hamda Bankda mavjud resurslar muddatidan kelib chiqib, Bankning o‘z mablag‘lari hisobidan milliy va xorijiy valyutada - 60 oygacha; Jalb qilingan mablag‘larda – jalb qilingan liniya shartlariga muvofiq.
Imtiyozli davr	Bankning o‘z mablag‘lari hisobidan ajratiladigan kreditlar uchun - mijoz arizasiga asosan, ammo qisqa muddatli kreditlar uchun 6 oydan va uzoq muddatli kreditlar uchun 1 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatgacha; Jalb qilingan mablag‘lar hisobidan ajratiladigan kreditlar uchun – jalb qilingan liniya shartlariga muvofiq.



Kichik va o‘rta biznes mijozlari uchun: “SME Green Loan”

Kredit foizi

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ajratiladigan kreditlar, faktoring va lizing amaliyotlari bo‘yicha foiz stavkalari”ni belgilash bo‘yicha amaldagi Boshqaruv qarorida o‘rnatilgan miqdorda.

Qo‘shimcha shartlar

Loyiha natijasida:

- kamida 20%lik energiya tejamkorligiga erishilishi;
- va/yoki atrof muhitga tarqalayotgan uglikisli gaz miqdori 20% ga kamayishi;
- va/yoki tabiiy resurslardan foydalanishda tejamkorlikga erishilishi;
- va/yoki atrof muhitga yetkaziladigan zararning kamaytirilishi;
- va/yoki boshqa “yashil” maqsadlarga erishilishi.
- ekologik talab va mezonlarga javob berishi (V va S toifa).

👤 Jismoniy shaxslar uchun: “Green Consumer Loan”

“Green Consumer Loan”

Kredit maqsadi	Quyosh fotoelektrik stansiyalari, quyosh suv isitkichlari, shamol generatorlari, quvvati 1 MVt gacha bo‘lgan mikro va kichik gidroelektrostansiyalari, biogaz ishlab chiqaruvchi uskunalar, biogaz qurilmalari, boshqa qayta tiklanuvchi energiya manba qurilmalari, energiya saqlash tizimlari, maishiy energiya samarador gaz-gorelkali qurilmalar va qozonlarni sotib olish uchun.
Kredit valyutasi	So‘m;
Kredit summasi	Bazaviy hisoblash miqdorining 500 barobarigacha ;
Kredit muddati	60 oy;
Imtiyozli davr	6 oygacha;
Kredit foizi	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy stavkasi midorida (15%) ;
Kredit manbasi	Energetika Vazirligi qoshidagi Tarmoqlararo energiyani tejash fondi mablag‘lari
Qo‘shimcha shartlar	Aholiga quyosh paneli va geliokolletor sotib olish uchun 50 mln. so‘mgacha bo‘lgan kreditlar onlayn mikroqarz sifatida xam ajratilishi mumkin;

 Jismoniy shaxslar uchun: “Yashil ipoteka”

“Yashil ipoteka”

Kredit maqsadi	Yashash uchun uy-joy sotib olish va uy-joyni ta'mirlash uchun;
Kredit valyutasi	So'm;
Kredit summasi	Uy-joy sotib olish uchun - 323 mln.so'mgacha , Uy-joyni ta'mirlash uchun - 80 mln.so'mgacha ,
Kredit muddati	Uy-joy sotib olish uchun – 20 yil , Uy-joyni ta'mirlash uchun – 10 yil .
Imtiyozli davr	-
Kredit foizi	Uy-joy sotib olish uchun – 18% , Uy-joyni ta'mirlash uchun – 17% ;
Qo'shimcha shartlar	- Qarz oluvchi va qo'shimcha qarz oluvchilarning o'rtacha bir oylik daromadlari yig'indisi 15 mln.so'mdan oshmasligi lozim; - Sotib olingan uy-joy majburiy ko'chirish hisobiga olingan yerda qurilmagan bo'lishi lozim; - Sotib olingan uy-joyda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmasligi lozim.